

**“MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INNOVATION
NAZARIYALARI”**

Bazarova Xolida Xosilbekovna

Sirdaryo Viloyati Oqoltin tumani

Navro'z nomli 5- sonli DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi–hozirgi zamon psixologiya fanining rivojlangan sohalaridan bo'lib, bu o'rinda muhim o'rin egallaydi, zero u bola ruhiy olamining tabiati va uning qonuniyatlarini o'rganuvchi sohadir.

Kalit so'zlar: yosh davr bosqichlari, ta'lim, tarbiya, rivojlanish bosqichlari, bilim, ko'nikma.

Abstract: Psychology of preschool children is one of the developed areas of modern psychology, which occupies an important place in it, since it is a field that studies the nature of the child's mental world and its laws.

Keywords: stages of adolescence, education, upbringing, stages of development, knowledge, skills.

Абстрактный. Психология детей дошкольного возраста является одной из развитых областей современной психологии и занимает важное место, поскольку является областью, изучающей природу психического мира ребенка и его законы.

Ключевые слова: этапы молодости, образование, воспитание, этапы развития, знания, умения.

Maktabgacha yosh davrlari psixologiyasi ontogenezdagi turli maktabgacha yoshdagi bolalar psixik taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, psixik rivojlanishini hamda psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

Bolalar ta'lim-tarbiya muassasalaridagi faoliyat va hatti-harakatlarining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogik psixologiya ikki fanni, ya'ni psixologiya va pedagogika fanlarining tutashgan joyidan o'rin egallagandir. Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish yosh davrlari psixologiyasi fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir.

Bolalar psixologiyasi – bolaning tug'ilgan vaqtidan boshlab to maktab yoshiga yetgunga qadar psixik jihatdan taraqqiy etish qonuniyatlarini va shaxsiy psixologik xususiyatlarining tarkib topishini o'rganadigan fan. Bola odam sifatida tashqi jihatdan katta yoshli odamlarga o'xshasa ham o'zining psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlarining mazmuni jihatidan katta yoshli odamlardan keskin farq qiladi. Bolalarda hali turmush tajribasi deyarli yo'qligi sababli ularning sezgi va idroklari, tafakkur va xayollari, hissiyot va irodalari katta yoshli odamlardagidek bo'lmaydi. Bolalar psixologiyasi har bir taraqqiyot bosqichidagi (ya'ni go'daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshdagi) psixik jarayonlarning rivojlanib borishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi predmetining muhim tomonlaridan biri turli yoshdagi bolalarga sezish, idrok, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, xayol, hissiyot va iroda kabi psixik jarayonlari va

holatlarining namoyon bo'lishi, taraqqiy etishi hamda takomillashuvining qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir. Bolalar psixologiyasi bola shaxsiy psixologik xususiyatlarining tarkib topishi va bolalar shaxsining tarkib topishiga faol ta'sir qiluvchi omillarni chuqur analiz qiladi. Ma'lumki, bola shaxsi va uning shaxsiy psixologik xususiyatlari qandaydir tasodifiy omillarning tartibsiz ta'sir etishi natijasida emas, balki muayyan konkret omillarning qonuniy ta'sir etishi natijasida tarkib topadi. Ana shu muhim qonuniy tarzda ta'sir qiladigan omillarni ochish va isbotlash bilan bolalar psixologiyasi shug'ullanadi. Bolalar psixologiyasi bolalar shaxsi va shaxsiy psixologik xususiyatlarining tarkib topishi kabi muhim ilmiy tushuncha va natijalarni o'rganib, har tomonlama rivojlanishga yo'naltirilgan barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirish qonuniyatlarini ochib beradi. Bolalar psixologiyasi o'zining murakkab predmetini tatbiq qilishda psixik taraqqiyotning asosiy qonuniyatlariga asoslanadi hamda bola ongining ijtimoiy-hissiy, psixofiziologik jihatdan hayotga bog'liqligini isbotlab beradi. Tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlaridan xabardor bo'lish bolalar psixologiyasida, bolalar psixik taraqqiyotini o'rganishda va «tabiiy zot» bo'lib tug'ilgan bolaning inson ijtimoiy tajribasini egallab, shaxs bo'lib yetishishi davomida to'g'ri yo'l topishga yordam beradi. Bola tug'ma yurish-turish shakllariga ega emas va u ijtimoiy muhitda rivojlana borib uch asosiy komponentni: hudud (narsa-predmetlar, ulardan foydalanish vositalari), vaqt (kundalik tartib) va muomala shakllarini o'zlashtiradi. Demak, bola tug'ilishdanoq uning faolligi "bola-kattalar" munosabatlari ichida tartibga solinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga: (3-4 yosh) kichik maktabgacha yosh davri, (4-5 yosh) kichik bog'cha yoshi o'rta maktabgacha davr, (o'rta bog'cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog'cha yoshilarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan hatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katga yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish, hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavgasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini

mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari xarakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar. Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir. Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi. Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir. Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Ma'lumki, bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo'yicha dunyoqarashi kengayib boradi.

Bog'cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun odam, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va sodda

tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'yin faoliyati orqali erishadi.

XULOSA

Xulosa qilibaytganda, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan bizning hozirgi davrda : hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlar jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadiki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi.- T. TDPU, 2017-yil.
2. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. Nazariy-eksperimental tahlil T.: Noshir 2010.

